

O‘MON SULTONLIGINING “VISION 2040” STRATEGIYASI: SIYOSIY MODERNIZATSIYA VA BARQAROR RIVOJLANISH MODELI

Nasirova Nilufar Yuldashevna

Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti Xodimlar bo‘limi boshlig‘i

nilufarnasirova2017@gmail.com

ANNOTATSIYA:

Maqolada O‘mon Sultonligining “Vision 2040” strategiyasi siyosiy modernizatsiya va barqaror rivojlanish modeli sifatida tahlil qilinadi. Strategiyaning nazariy asoslari, siyosiy-institutsional yo‘nalishlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy ustuvorliklari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Vision 2040, siyosiy modernizatsiya, barqaror rivojlanish, davlat boshqaruvi.

СТРАТЕГИЯ СУЛТАНАТА ОМАН “VISION 2040”: МОДЕЛЬ ПОЛИТИЧЕСКОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

Насирова Нилуфар Юлдашевна

начальника отдела Кадров Ташкентского
государственного университета востоковедения

nilufarnasirova2017@gmail.com

АННОТАЦИЯ:

В статье анализируется стратегия «Vision 2040» Султаната Оман как модель политической модернизации и устойчивого развития. Рассматриваются ее теоретические основы, институциональные реформы и социально-экономические приоритеты.

Ключевые слова: Vision 2040, политическая модернизация, устойчивое развитие, государственное управление.

“VISION 2040” STRATEGY OF THE SULTANATE OF O‘MON: A MODEL OF POLITICAL MODERNIZATION AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Nasirova Nilufar Yuldashevna

Head of the Personnel Department of the
Tashkent State University of Oriental Studies

nilufarnasirova2017@gmail.com

ABSTRACT:

The article analyzes O'mon's Vision 2040 strategy as a model of political modernization and sustainable development. The theoretical foundations, institutional reforms, and socio-economic priorities of the strategy are examined.

Keywords: *Vision 2040, political modernization, sustainable development, governance.*

KIRISH

XXI asrda globallashuv, texnologik taraqqiyot va geosiyosiy o'zgarishlar sharoitida davlatlarning uzoq muddatli strategik rivojlanish konsepsiyalarini ishlab chiqish va izchil amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, tabiiy resurslarga tayanadigan davlatlar uchun iqtisodiy diversifikatsiya, davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish va inson kapitalini rivojlantirish barqaror taraqqiyotning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, O'mon Sultonligi tomonidan ishlab chiqilgan "Vision 2040" milliy rivojlanish strategiyasi mamlakatning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy transformatsiyasini ta'minlashga qaratilgan muhim hujjat sifatida namoyon bo'ladi.

O'mon Sultonligi Yaqin Sharq mintaqasida nisbatan barqaror siyosiy tizimga ega bo'lgan davlatlardan biri bo'lib, uning rivojlanish modelida evolyutsion islohotlar, siyosiy muvozanat va tashqi siyosatda betaraflik tamoyillari ustuvor hisoblanadi. 1970-yillardan boshlab mamlakatda amalga oshirilgan bosqichma-bosqich modernizatsiya siyosati avvalo Sulton Qobus bin Said nomi bilan bog'liq bo'lsa, bugungi kunda ushbu siyosiy yo'nalish Vision 2040 strategiyasi orqali yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

"Vision 2040" strategiyasi 2021-yildan boshlab amalga kiritilgan bo'lib, u avvalgi "Vision 2020" dasturining mantiqiy davomi sifatida shakllangan. Mazkur hujjat mamlakatni neftga qaramlikdan bosqichma-bosqich xalos etish, davlat boshqaruvi institutlarini takomillashtirish, qonun ustuvorligini mustahkamlash, shuningdek, innovatsiya va inson kapitaliga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Shu jihatdan, Vision 2040 nafaqat iqtisodiy dastur, balki keng qamrovli siyosiy modernizatsiya modeli sifatida ham e'tiborga loyiqdir.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi O'mon Sultonligining "Vision 2040" strategiyasini siyosiy modernizatsiya va barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan tahlil qilishdan iborat. Strategiyaning nazariy asoslari, davlat boshqaruvi va institutlar faoliyatiga ta'siri, ijtimoiy-iqtisodiy ustuvor yo'nalishlari hamda uning mamlakatning ichki va tashqi siyosiy imijini shakllantirishdagi o'rni o'rganiladi.

ASOSIY QISM

Zamonaviy siyosiy jarayonlarda milliy rivojlanish strategiyalari davlatlarning uzoq muddatli maqsadlarini belgilovchi muhim konseptual hujjat sifatida maydonga chiqmoqda. Bunday strategiyalar nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash, balki siyosiy barqarorlikni mustahkamlash, davlat institutlarini modernizatsiya qilish hamda jamiyat va hokimiyat o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, O'mon Sultonligining "Vision 2040" strategiyasi strategik rejalashtirishning zamonaviy modeliga asoslangan kompleks siyosiy hujjat hisoblanadi. Strategik rejalashtirish davlat boshqaruvi nazariyasida mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish ustuvorliklarini belgilashga qaratilgan tizimli jarayon sifatida talqin etiladi. Siyosatshunoslikda ushbu tushuncha davlatning ichki va tashqi muhitdagi o'zgarishlarga moslashuvchanligini ta'minlash, mavjud resurslardan samarali foydalanish hamda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni mustahkamlash bilan izohlanadi. Rivojlanayotgan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, aniq maqsad va indikatorlarga ega strategiyalar siyosiy modernizatsiya jarayonlarining muhim katalizatori bo'lib xizmat qiladi. O'mon Sultonligi sharoitida strategik rejalashtirish alohida ahamiyatga ega, chunki mamlakat iqtisodiyoti uzoq vaqt davomida uglevodorod resurslariga tayanib kelgan. Neft narxlarining jahon bozoridagi beqarorligi, demografik o'sish va global raqobat sharoitida mamlakatni yangi rivojlanish modeliga o'tkazish zarurati vujudga keldi. Aynan shu ehtiyoj "Vision 2040" strategiyasining shakllanishiga nazariy va amaliy asos bo'ldi.

"Vision 2040" strategiyasi tasodifiy hujjat emas, balki O'mon Sultonligining o'tgan o'n yilliklar davomida to'plagan siyosiy va institutsional tajribasining mantiqiy davomi hisoblanadi. Avvalo, ushbu strategiyaning shakllanishiga bir nechta muhim omillar ta'sir ko'rsatganini ta'kidlash lozim.

Birinchidan, iqtisodiy omil. Neft va gaz sektorining davlat byudjetidagi ulushi yuqori bo'lib qolayotgan bir sharoitda iqtisodiy diversifikatsiya masalasi dolzarb muammoga aylandi. Ikkinchidan, ijtimoiy omil – yoshlar ulushining ortib borishi, bandlik va ta'lim sifati masalalarini yangi yondashuvlar asosida hal etishni talab qildi. Uchinchidan, siyosiy-institutsional omil – davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlarini kuchaytirish zarurati bilan bog'liq bo'ldi. Mazkur omillar jamlanib, "Vision 2040"ni faqat iqtisodiy dastur emas, balki kompleks siyosiy modernizatsiya konsepsiyasi sifatida shakllantirdi. Strategiya ishlab chiqilishida davlat organlari, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati vakillarining ishtiroki ta'minlangani ham uning konseptual jihatdan puxta ekanidan dalolat beradi.

O'mon Sultonligining avvalgi uzoq muddatli rivojlanish hujjati hisoblangan "Vision 2020" dasturi mamlakatni infratuzilmaviy va ijtimoiy jihatdan

rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. Ushbu dastur doirasida yo'l-transport tizimi, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarida sezilarli yutuqlarga erishildi. Biroq, XXI asrning ikkinchi o'n yilligiga kelib, global iqtisodiy va siyosiy sharoitning murakkablashuvi yangi, yanada uzoq muddatli va moslashuvchan strategiyani talab qildi. "Vision 2040" aynan shu ehtiyojdan kelib chiqib ishlab chiqildi va u avvalgi dasturning yutuqlarini saqlagan holda, yangi ustuvor yo'nalishlarni belgilab berdi. Xususan, innovatsion rivojlanish, raqamli iqtisodiyot, samarali davlat boshqaruvi va barqaror rivojlanish tamoyillari strategiyaning markaziy g'oyalariga aylandi. Shu jihatdan, "Vision 2040" O'mon Sultonligining evolyutsion modernizatsiya modelini ifodalovchi konseptual hujjat sifatida baholanadi.

"Vision 2040" strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biri O'mon Sultonligida davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish va siyosiy institutlar samaradorligini oshirishdan iboratdir. Strategiya doirasida davlat boshqaruvida ochiqlik, samaradorlik va hisobdorlik tamoyillarini mustahkamlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Avvalo, davlat institutlari faoliyatini optimallashtirish va byurokratik to'siqlarni kamaytirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, raqamli texnologiyalardan foydalanish va davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazish siyosiy boshqaruvning sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qilmoqda. Bu jarayonlar fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, "Vision 2040" doirasida qonun ustuvorligini ta'minlash, sud-huquq tizimini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari siyosiy modernizatsiyaning ajralmas qismi sifatida e'tirof etilgan. O'mon sharoitida siyosiy islohotlar keskin emas, balki evolyutsion xarakterga ega bo'lib, mavjud siyosiy barqarorlikni saqlagan holda institutlarni bosqichma-bosqich rivojlantirishga qaratilgan.

Bundan tashqari, fuqarolik jamiyati institutlari va xususiy sektorning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish strategiyaning muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu esa davlat-jamiyat munosabatlarining yanada muvozanatli va hamkorlikka asoslangan modelini shakllantirishga zamin yaratadi.

Ijtimoiy sohada aholi farovonligini oshirish, sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish va gender tengligini ta'minlash masalalari ham "Vision 2040" doirasida muhim o'rin tutadi. Strategiya barqaror rivojlanishning ekologik jihatlarini ham qamrab olgan bo'lib, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish siyosatini ilgari suradi.

“Vision 2040” strategiyasining markaziy yo‘nalishlaridan biri O‘mon Sultonligining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishdan iboratdir. Strategiya mamlakat iqtisodiyotining uzoq yillar davomida shakllangan neft va gaz sektoriga yuqori darajadagi qaramligini bosqichma-bosqich kamaytirish, barqaror va inklyuziv iqtisodiy o‘rishni ta‘minlashni o‘z oldiga ustuvor maqsad qilib qo‘yadi.

Avvalo, iqtisodiy diversifikatsiya masalasi strategiyaning asosiy ustunlaridan biri hisoblanadi. Vision 2040 doirasida sanoat ishlab chiqarishi, logistika va transport infratuzilmasi, dengiz iqtisodiyoti, turizm va baliqchilik sohalarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Xususan, geografik jihatdan qulay joylashuvdan kelib chiqib, O‘mon mintaqaviy logistika va tranzit markaziga aylanishni maqsad qilgan. Bu esa nafaqat iqtisodiy o‘rishga, balki yangi ish o‘rinlari yaratishga ham xizmat qiladi.

Strategiyada inson kapitalini rivojlantirish masalasi alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy siyosiy-iqtisodiy nazariyalarga ko‘ra, barqaror rivojlanishning asosiy manbai inson resurslari hisoblanadi. Shu bois Vision 2040 ta‘lim tizimini mehnat bozori talablariga moslashtirish, kasbiy ta‘limni rivojlantirish, ilm-fan va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Bu jarayon uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy sohada aholi farovonligini ta‘minlash, sog‘liqni saqlash xizmatlari sifati va qamrovini kengaytirish, ayollar va yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish masalalari ham strategiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Vision 2040 jamiyatning barcha qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratish orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan.

Shuningdek, strategiyada barqaror rivojlanishning ekologik jihatlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash O‘mon Sultonligining uzoq muddatli taraqqiyot modelining muhim elementi sifatida e‘tirof etiladi. Shu jihatdan, Vision 2040 iqtisodiy o‘rish va ekologik muvozanatni uyg‘unlashtirishga intilgan zamonaviy rivojlanish modeli sifatida namoyon bo‘ladi.

“Vision 2040” strategiyasi O‘mon Sultonligining tashqi siyosiy yo‘nalishlari bilan uzviy bog‘liqdir. O‘mon an‘anaviy ravishda betaraf va muvozanatli tashqi siyosat olib boruvchi davlat sifatida tanilgan bo‘lib, ushbu yondashuv strategiya doirasida ham saqlab qolinmoqda. Strategiya mamlakatning xalqaro iqtisodiy hamkorlikdagi rolini kuchaytirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va mintaqaviy logistika markaziga aylanishni ko‘zda tutadi. Shu orqali O‘mon o‘zining xalqaro imijini barqaror, ishonchli va uzoq muddatli hamkor sifatida mustahkamlashga

intilmoqda. Bundan tashqari, “Vision 2040” O‘mon Sultonligining “yumshoq kuch” salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Strategiyaning tashqi siyosiy o‘lchami, avvalo, xalqaro iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish bilan bog‘liq. Vision 2040 O‘mon iqtisodiyotini global iqtisodiy tizimga chuqurroq integratsiyalash, xalqaro savdo aloqalarini diversifikatsiya qilish va investitsiya muhitini yaxshilashni ko‘zda tutadi. Bu esa mamlakatning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash bilan birga, uning xalqaro ishonchliligini ham oshiradi.

O‘mon Sultonligi tashqi siyosatida “yumshoq kuch” elementlari muhim o‘rin tutadi. Vision 2040 doirasida madaniy diplomatiya, ta’lim almashuvlari, ilmiy hamkorlik va gumanitar tashabbuslar orqali mamlakatning ijobiy xalqaro imijini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu yondashuv O‘mon tashqi siyosatining mojarolardan xoli, muloqot va vositachilikka asoslangan modelini yanada mustahkamlaydi.

Bundan tashqari, strategiya O‘mon Sultonligining mintaqaviy va global xavfsizlik masalalaridagi rolini kuchaytirishga xizmat qiladi. Betaraflik va vositachilik siyosati orqali O‘mon mintaqaviy nizolarni tinch yo‘l bilan hal etishga hissa qo‘shib kelmoqda. Vision 2040 ushbu tashqi siyosiy yo‘nalishni saqlagan holda, mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini institutsional va iqtisodiy asoslar bilan mustahkamlashni maqsad qilgan.

Shu tariqa, “Vision 2040” O‘mon Sultonligining tashqi siyosatini faqat diplomatik faoliyat bilan cheklab qolmasdan, uni iqtisodiy rivojlanish, investitsiya siyosati va xalqaro hamkorlik bilan uzviy bog‘langan kompleks strategik model sifatida namoyon etadi. Bu esa mamlakatning uzoq muddatli global raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi.

XULOSA

O‘mon Sultonligining “Vision 2040” strategiyasi mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish yo‘nalishlarini belgilovchi fundamental siyosiy hujjat bo‘lib, u siyosiy modernizatsiya va barqaror rivojlanishni uyg‘unlashtirgan kompleks model sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur strategiya orqali O‘mon nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, balki davlat boshqaruvi institutlarini takomillashtirish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va global jarayonlarga moslashishni maqsad qilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Vision 2040”ning asosiy konseptual yutug‘i uning evolyutsion modernizatsiya modeliga asoslanganidadir. Strategiya keskin siyosiy islohotlarga emas, balki mavjud siyosiy barqarorlikni saqlagan holda institutlarni bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Bu yondashuv O‘mon

Sultonligining tarixiy, madaniy va siyosiy xususiyatlariga mos keladi hamda islohotlarning ijtimoiy qabul qilinishini ta'minlaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan, Vision 2040 iqtisodiy diversifikatsiya, inson kapitalini rivojlantirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Neftga qaramlikni kamaytirish, innovatsiyaga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish va ta'lim sifatini oshirish orqali strategiya uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Shu bilan birga, ijtimoiy tenglik va inklyuziv rivojlanish tamoyillari strategiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tashqi siyosiy o'lchamda esa Vision 2040 O'mon Sultonligining betaraflikka asoslangan an'anaviy tashqi siyosatini mustahkamlab, uni iqtisodiy diplomatiya va "yumshoq kuch" mexanizmlari bilan boyitadi. Strategiya mamlakatning xalqaro imijini barqaror, ishonchli va konstruktiv hamkor sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa O'mon Sultonligining mintaqaviy va global miqyosdagi nufuzini mustahkamlashga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, O'mon Sultonligining Vision 2040 strategiyasi siyosiy modernizatsiya va barqaror rivojlanishni uyg'unlashtirgan samarali model bo'lib, u rivojlanayotgan davlatlar uchun muhim ilmiy-amaliy tajriba sifatida baholanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Al-Hajri H. O'monda iqtisodiy diversifikatsiya: muammolar va istiqbollar. – Maskat: Sultan Qaboos University Press, 2021.
2. Hertog S. Fors ko'rfazi mamlakatlarining siyosiy iqtisodiyoti. – London: Routledge, 2016.
3. Oman Vision 2040. O'mon Sultonligining 2040-yilgacha mo'ljallangan milliy rivojlanish strategiyasi (rasmiy hujjat). – Maskat, 2020.
4. United Nations. Sustainable Development Goals Report 2023. – New York: UN Publications, 2023.
5. Valeri M. Oman: Politics and Society in the Qaboos State. – London: Hurst & Company, 2017.
6. Jahon banki. O'mon iqtisodiy sharhi: iqtisodiy diversifikatsiya jarayonlarini boshqarish. – Vashington, 2022.
7. Oxford Business Group. O'mon bo'yicha hisobot – 2023. – Oksford: OBG, 2023.